



**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT  
DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI  
UNIVERSITETI AKADEMIK LITSEYI**

**24-OKTYABR  
2025-YIL**



**O'zbek tilining  
xalqaro maydondagi  
nufuzi: tarix, bugun  
va istiqbol**

**Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK  
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI AKADEMIK LITSEYI**



---

**O'ZBEK TILINING XALQARO MAYDONDAGI NUFUZI: TARIX,  
BUGUN VA ISTIQBOL**

**ВЛИЯНИЕ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА НА МЕЖДУНАРОДНОЙ  
АРЕНЕ: ИСТОРИЯ, СОВРЕМЕННОСТЬ И ПЕРСПЕКТИВЫ**

**THE PRESTIGE OF THE UZBEK LANGUAGE IN THE  
INTERNATIONAL ARENA: HISTORY, PRESENT, AND FUTURE**

---

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi maqolalar to'plami

**OCTOBER 24, 2025**



УДК:811.512.133(091)(100)(08)

Bugungi kunda “O‘zbekiston-2030” strategiyasining asosiy vazifalardan biri – ilmiy izlanish yutuqlarini amaliyotga joriy etish yo‘li bilan fan sohalarini rivojlantirish, ya’ni xalqaro ilmiy hamjamiyatda e’tirof etilishiga xizmat qilishdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentinnig 2020-yil 20-oktyabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-son farmoni ijrosini ta’minlash hamda ta’lim jarayonida o‘zbek tili va adabiyot fanlarini o‘qitishda innovatsion metodlardan foydalanish va o‘qituvchilarga uslubiy yordam ko‘rsatish maqsadida 2025-yil 24-oktyabrda o‘tkaziladigan **“O‘zbek tilining xalqaro maydondagi nufuzi: tarix, bugun va istiqbol”** mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjumanning maqolalar to‘plamini e’lon qiladi. Mazkur ilmiy maqolalar to‘plamida o‘zbek tili tarixi va uning xalqaro aloqalardagi o‘rni, hozirgi o‘zbek tilshunosligining dolzarb muammolari, akademik litseylarda o‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi, turkiy xalqlar adabiyoti tarixi, turkiy tillarning rivoji va o‘zaro o‘xshashliklari, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o‘rganish, madaniy aloqalami zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish, raqamli texnologiyalar davrida o‘zbek tilining imkoniyatlari, raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To‘plamdan dunyo bo‘yicha taniqli turkiyshunos olimlar, universitetlar, akademik litseylar professor o‘qituvchilari, iqtidorli talabalar hamda o‘quvchilarning maqolalari ham o‘rin olgan.

#### **TAQRIZCHILAR:**

**Normamatov Sultonbek Ermamatovich - Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori**

**Ismailova Vasila Shuxratovna - Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot o‘qituvchisi**

#### **TAHRIR HAY’ATI:**

**Adizov Bekjon Qo‘chchiyevich - Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti akademik litseyi direktori**

**Aliqulova Dilbar Esanovna - Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti akademik litseyi o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari**

**Baxtiyorov Qobuljon Odiljon o‘g‘li - Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot o‘qituvchisi**

*Mazkur to‘plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ilmiy-texnikaviy kengashining 2025-yil 30-oktyabrdagi 4-sonli ilmiy majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.*

**Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o‘zlari mas’uldirlar.**



## QADIMGI VA ESKI TURK BITIKLARIDA TABG'ACH VA QITANY (XITOIY) TOPONIMLARI MASALASI

**Mamajonov Alisherbek Ravshanbek o'g'li**

Farg'ona davlat univeristeti Lingvistik: o'zbek tili mutaxassiligi magistranti.

**e-mail:** [alisherbekmamajonov0411@gmail.com](mailto:alisherbekmamajonov0411@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada qadimgi turk yozma yodgorliklarida xususan, O'rxun-Enasoy bitiklarida uchraydigan Tabg'ach va Qitany (Xitoy) toponimlari tahlil qilinadi. Maqolada mazkur atamalarning tarixiy-lug'aviy mohiyati, ularning xitoy xalqlari bilan bog'liqlig'i hamda turk dunyosi tasavvuridagi o'rin yoritiladi. Shuningdek, Qoraxoniylar davri yozma manbalari – Mahmud Koshg'ariy va Yusuf Xos Hojib asarlarida bu toponimlarning qanday talqin etilgani ko'rsatib o'tiladi.

Tadqiqot davomida toponimlarning semantik, tarixiy va madaniy xususiyatlari tahlil qilinib, turk xalqlarining xitoy sivilizatsiyasi bilan bo'lgan aloqalarini ochib berish maqsad qilingan.

**Kalit so'zlar:** Tabg'ach, Qitany, Xitoy, O'rxun-Enasoy bitiklari, Kultigin, Tonyuquq, Qoraxoniylar davri, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Koshg'ariy.

### **Аннотация**

В данной статье анализируются топонимы Табгач и Китан (Китай), встречающиеся в древнетюркских письменных памятниках, в частности в Орхон-Енисейских надписях. В работе рассматриваются историко-лингвистическая сущность этих терминов, их связь с китайскими народами, а также их место в мировоззрении тюркского мира. Кроме того, показано, как данные топонимы трактуются в письменных источниках караханидской эпохи — в произведениях Махмуда Кашгари и Юсуфа Хас Ходжиба.



В ходе исследования анализируются семантические, исторические и культурные особенности топонимов, с целью раскрытия связей тюркских народов с китайской цивилизацией.

**Ключевые слова:** Табгач, Китан, Китай, Орхон-Енисейские надписи, Кюльтегин, Тоньюкук, эпоха Караханидов, Юсуф Хас Ходжиб, Махмуд Кашгари.

### **Annotation**

This article analyzes the toponyms Tabgach and Khitan (China) found in ancient Turkic written monuments, particularly in the Orkhon-Enisei inscriptions. The paper explores the historical and linguistic essence of these terms, their connection with Chinese peoples, and their place in the worldview of the Turkic world. In addition, it discusses how these toponyms are interpreted in the written sources of the Karakhanid period, specifically in the works of Mahmud al-Kashgari and Yusuf Khass Hajib.

During the research, the semantic, historical, and cultural characteristics of these toponyms are analyzed, with the aim of revealing the relationship between the Turkic peoples and Chinese civilization.

**Keywords:** Tabgach, Khitan, China, Orkhon-Enisei inscriptions, Kül Tigin, Tonyukuk, Karakhanid period, Yusuf Khass Hajib, Mahmud al-Kashgari.

### **Kirish**

Turk xalqlarining eng qadimiy yozma yodgorliklari – O'rxun-Enasoy bitiklari, uyg'ur davri matnlari, hamda keying yozma manbalar o'z davrining siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotiga oid qimmatli ma'lumotlarni o'zida mujassam etgan. Ushbu manbalarda uchraydigan toponimlar, xususan, Tavg'ach<sup>9</sup> (Tabyač) va Qıtany (Xitoy) nomlari turkologiyada alohida o'rganish obyekti sifatida qaraladi. Bu toponimlar orqali qadimgi turklarning Sharqiy Osiyodagi siyosiy kuchlar, jumladan Xitoy imperiyasi va unga yaqin xalqlar bilan bo'lgan munosabatlari yoritiladi.

---

<sup>9</sup> Xitoy – Pr. Dr. Muharrem Ergin. Orhun Abideleri. Boğaziçi Yayınları. 2011. 112-bet



Shuning uchun qadimgi turk yozma yodgorliklarida bu toponimlarning qanaday til birliklari sifatida qo'llanilgani, ularning semantik rivoji va tarixiy-geografik o'rni masalasini o'rganish muhim ilmiy vazifa hisoblanadi. Mazkur maqolada Tabg'ach va Xitoy (Qitany) toponimlarning manbalardagi aks etishi, ularning lingvistik va tarixiy izohlanishi, shuningdek, turk xalqlarining siyosiy tafakkurida turgan o'rni tahlil qilinadi.

**Tabg'ach davlati.** Bu davlatning asoschisi Shamexon bo'lib, u 386–557-yillar davomida hukm surgan. Shin-si, Kan-si, Yan-si daryosiga qadar cho'zilgan hudud, Markaziy Osiyodagi Qoshg'ar, Turfon rayonlari, Urxun vodiysidagi Jujan davlati sharqidagi bir qism joylar shu sulola tarkibida edi.

Tabg'ach davlatidagi xunlar quyidagi urug'lardan iborat: *xung-nu, eftalit, o'g'uz guruhi, avar, to'ba (tabg'ach)*. Ular bir to'pdan kelib chiqqan. Xung-nular oliy nasab sanalgan. Xung-nu qadimgi mo'g'ul. Tungus va boshqa urug'lar nomidan tashkil topgan. Xunlar tilidagi ko'pchilik so'zlarning tunguslar tilida borligi ham shundan<sup>10</sup>.

Turk xalqlarining eng qadimiy yozma yodgorliklari orasida Tabg'ach va Qitany toponimlari eng ko'p tilga olingan nomlar sanaladi. Bu atamalar ilk turk yozuvlari hisoblanmish O'rxun-Enasoy bitiklarida uchraydi va o'sha davrda turklarning siyosiy va harbiy hayotida muhim rol o'ynagan xalqlarni ifodalagan.

Tabg'ach (Tabyač) nomi ilk bor Kultigin, Bilga xoqon, To'nyuquq bitiklarida tilga olinadi. Mazkur manbalarda bu atama ko'pincha Xitoy (Shimoliy Xitoy yoki Tan imperiyasi)ni bildiradi. Masalan:

*Tabyač bodunqa bāglik urı oylın qul boltı, silikqız oylın kün boltı*<sup>11</sup>.  
(Tabg'ach xalqiga bek bo'ladigan o'g'il bolasi bilan qul bo'ldi, silik qiz bolasi bilan cho'ri bo'ldi<sup>12</sup>).

<sup>10</sup> Раҳмон Н. Турк хоқонлиги. – Тошкент. Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. – 14-15 betlar.

<sup>11</sup> Kultegin: Sharq tomoni (7).

<sup>12</sup> Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Қадимги туркий тил. Тошкент. Ўқитувчи. 1982.

*Bilgä Tonyuquq bän özüm Tabaç äliñä qılıntım*<sup>13</sup>. (Bilga To'nyuquq men o'zim Tabg'ach davlatida tarbiyandim<sup>14</sup>).

Bu matndan ko'rinadiki, Tabg'ach nomi turklar uchun yot, lekin siyosiy jihatdan qudratli davlat sifatida tilga olinadi.

Tilshunos va tarixchilar bu nomning kelib chiqishini turlicha talqin qilganlar. Ba'zi manbalarda ko'ra, "Tabg'ach" qadimgi Toba (Tuoba) qabilaasining nomidan kelib chiqqan bo'lib, ular IV-VI asrlarda Xitoyning shimolida hukronlik qilgan Bei Vey sulolasiga asos solganlar. Shu sababli turklar bu davlatni Tabg'ach eli deb deb ataganlar.

"O'zbekiston milliy ensilopediyasi"da Tabg'ach nomining turli davrlardagi nomi zikr etilgan:

**TAVG'ACH**, Tabg'ach, Tamg'ach, Tabqoch, To'ba-Toba, Tug'bat – ilk o'rta asrlarda turkiy xalqlardagi tarixiy-etnik atama: 1) Xitoy manbalarida to'ba (tug'bat) deb nomlanib, ular uqrgan xonlik Shimoliy Vey sulolasi (386-534) deb atalgan. To'balar syayabilarning avlodi bo'lgan; 2) Turkiy bitiklarda Tavg'ach atmasi Tan sulolasini anglatgan; 3) Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida Tabg'achni 20 ona turk qabilasidan biri sifatida qayd etib, Tavg'achlarning yashagan hududi Yuqori Chin (Xitoyning shimoli) daligi, ammo keying davrda bu hudud "Mochin" deb o'zgartirilgini, shuningdek, mamlakati qadimgi va katta xon ma'nosida "Tavg'ach xon" deyilishini yozgan. Qoraxoniylar o'zlarini "Tavg'achxon", "Tamg'achxon" deb atashgan<sup>15</sup>.

**Qıtany** – manjur qabilalaridan iborat xalq. Hozirgi ruscha nomi кидане<sup>16</sup>. O'rxun bitiklarida "Qıtany" nomi aniq tarzda tilga olingan. Bu esa Qitanylarning turklar bilan ilk aloqalari VIII asrdayoq boshlangani ko'rsatadi. Masalan:

<sup>13</sup> To'yuquq: Birinchi tosh, g'arbiy tomoni (1).

<sup>14</sup> Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Қадимги туркий тил. Тошкент. Ўқитувчи. 1982.

<sup>15</sup> O'zbekiston milliy ensiklopesiyasi. Toshkent. O'zbekiston milliy ensiklopesiyasi davlat ilmiy nashriyoti. 2000-2005. VIII jild. – 31bet.

<sup>16</sup> Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Қадимги туркий тил. – Тошкент. Ўқитувчи. 1982. – 81-бет

*Qirqiz, Quriqan, Otuz Tatar, Qitany, Tatabi qop yayi ärmis*<sup>17</sup>. (Qirg'iz, Quriqan, O'ttiz Tatar, Qitan, Tatabi butunlay dushman ekan).

Ol äki kishi bar ärsär säni Tabğaçığ ölürtäçi tärmän öñra Qıtanyığ ölürtäçi tärmän<sup>18</sup>. (O'sha ikki kishi bor bo'lsa, seni Tabg'achni o'ldirajak, deyman, shimolda Xitoyni o'ldirajak deyman).

Bu holat qadimgi turklar Qitanylarni Sharqdagi mustaqil siyosiy kuch sifatida tanilganini bildiradi.

Demak, Qitany nomi uyg'ur davrida yanada faol qo'llanila boshlagan bo'lasada, uning ilk yozma izi ayana O'rxun-Enasoy yodgorliklarida uchraydi. Keyinchalik IX-XI asr musulmon tarixchilarining asarlarida bu nom "Xitay" shaklida mustahkamlangan. Shu tariqa "Qitany" toponimi "Tabg'ach" atamasining o'rnini asta-sekin egallab, Xitoyni angalatuvchi umumiy nom sifatida shakllangan.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, Tabg'ach nomi VI-VIII asrlarda keng ishlatilgan bo'lsa, Qitany (yoki Kidan) atamasi VIII asdan boshlab turk dunyosida faol muomalaga kirgan.

VIII-XI asrlardan keyin turk yozma adabiyotiining yangi bosqichi – Qoraxoniylar davrida Tabg'ach va Qitany toponimlari o'z mazmunini yo'qotmagan, balki tarixiy-siyosiy anglamda yangicha talqin qilingan.

Masalan, Yusuf Xos Hojibning "Qutatg'u bilig" asarida Tabg'ach nomi aniq tarzda tilga olinadi. Asarda bu so'z ko'pincha Sharqdagi boy, madaniyatli va siyosiy jihatdan qudratli xalqni ifodalaydi. Misol tariqasida quyidagi satrni keltirish mumkin: *Bo'z yer yuzga tortdi chachvonni*

*Tabg'och molin yoydi xitoy karvoni*<sup>19</sup>. – bu yerda Tabg'ach "Xitoy" anglamida ishlatilgan bo'lib, u ilm va adab markazi sifatida tasvirlanadi.

<sup>17</sup> Kultegin: Sharq tomoni (14).

<sup>18</sup> To'nyuquq: Birinchi tosh, g'arbiy tomoni (10).

<sup>19</sup> Hoshimov Sh.G. "Qutatg'u bilig"ning hozirgi kun jahon davlatchiligida yuzaga kelayotgan ijtimoiy muammolarni bartaraf etishdagi o'rni. "Jahon turkologiyasining buyuk obidasi "Qutatg'u bilig" va uni o'rganishning dolzarb masalalari" mavzuyidagi Xalqaro konferensiya to'plami. Toshkent – 2020. – 75-bet.



**Tabg'ach**<sup>20</sup> – turkiy qabila nomlaridan biri, shu qabila asosida yuzaga kelgan unvon; Xitoyning umumiy nomi. Lekin bu davrda Janubiy Xitoy uchun “Mochin (Manchjuriya) termini qo'llangan bo'lib, Tabg'ach esa Mochinning bo'lagi sifatida tushilgan. Shungdek Chin ham Xitoyni anglatgan, faqat bunda Sharqiy va Markaziy Xitoy nazarda tutilgan. O'rta Chinni Xitoy, Chinni Qashqar deyish ham uchraydi<sup>21</sup>.

Shuningdek, Mahmud Koshg'ariy ham o'zining buyuk asari “Devonu lug'otit turk” asarida Tabg'ach nomini bir necha bor tilga oladi. U bu nomni “Xitoy yurtining nomi” deb izohlaydi va ayrim maqollar yoki hikmatlarda bu atamadan foydalanadi. Masalan, u shunday yozadi:

**Tawyač (Tavg'ach)** – Mochin mamlakatining oti. Bu mamlakat Chindan to'rt oylik yo'l uzoqligidadir. Chinaslida uchta: 1) Yuqori Chin – bu Sharq bo'lib, bunga *Tawyač* (Tavg'ach) deyishadi. 2) O'rta Chin, buni *Xitaj* (Xitoy) deyishadi. 3) Quyi Chin, bun Barxan deyishadi va u Qashg'ardadir. Lekin hozir Tavg'ach Mochin, Xitoy chin deb yuritiladi<sup>22</sup>.

Mahmud Koshg'ariy buni (Qitany toponimini) **Xitay** shaklida berib, uni Sin (Chin, ya'ni hzoirgi – Xitoydir), deydi. Tabg'achni tavg'ach shaklida berib, uni Mosin (Mochin, ya'ni hozirgi manchjur) deydi [Ahmad Rif'at nashri, 1-jild, 28-bet]. Urxun yodnomlarida buning aksi Qitany – Mochin, Tabg'ach – Chindir<sup>23</sup>. Bu xalqni Tabg'achdan farqli, ammo unga yaqin Sharqiy Osiyo xalq sifatida tilga olidi. Bu farqlash Koshg'ariyning siyosiy-geografik bilimining yuqori darajada bo'lganidan dalolat beradi.

Qadimgi turk manbalarida uchraydigan Tabg'ach va Qitany (Xitoy) toponimlari turk xalqlarining tarixiy xotirasi hamda ularning sharqiy qo'shnilari –

Xitoy xalqlari bilan bo'lgan aloqalarini aks ettiruvchi muhim yatixiy-lisoniy birliklardandir. O'rxun-Enasoy yodgorliklarida bu nomlarning ishtilishi o'z

<sup>20</sup> Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2007. – 190-bet.

<sup>21</sup> Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2007. – 187-bet.

<sup>22</sup> Mahmud Koshg'ariy. “O'zbekiston”. Toshkent – 2022. 350-bet.

<sup>23</sup> Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Қадимги туркий тил. – Тошкент. Ўқитувчи. 1982. – 81-бет

davrida siyosiy, madaniy va harbiy jihatdan kuchli bo'lgan Xitoy imperiyasi bilan doimiy munosabatda bo'lganligini ko'rsatadi.

Keying davrlarda, xususan, Qoraxoniylar davrida, Tabg'ach va Xitay (Xitoy) nomlari tilga olinib, ular orqali bu toponimlarning semantik ko'lami yanada kengaygani kuzatiladi.

Shunday qilib, Tabg'ach va Qitany (Xitoy) toponimlari nafaqat tarixiy joy nomi sifatida, balki turk xalqlarining geosiyosiy ongida, madaniy tafakkurida va tarixiy xotirasida muhim o'rin egallaydi. Ularning manbalardagi talqinlari turk ulusining tashqi dunyo bilan aloqalarini, siyosiy qarashlari va madaniy o'zaro ta'sirini o'rganishda bebaho manba bo'lib xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Қадимги туркий тил. – Тошкент. Ўқитувчи. 1982.
2. Hoshimov Sh.G. “Qutatg‘u bilig”ning hozirgi kun jahon davlatchiligida yuzaga kelayotgan ijtimoiy muammolarni bartaraf etishdagi o‘rni. “Jahon turkologiyasining buyuk obidasi “Qutatg‘u bilig” va uni o‘rganishning dolzarb masalalari” mavzuyidagi Xalqaro konferensiya to‘plami. Toshkent – 2020.
3. Mahmud Koshg‘aiy. “O‘zbekiston”. Toshkent – 2022.
4. Раҳмон Н. Турк хоқонлиги. – Тошкент. Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993.
5. Yusuf Xos Hojib. Qutatg‘u bilig. Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2007.
6. O‘zbekiston milliy ensiklopesiyasi. Toshkent. O‘zbekiston milliy ensiklopesiyasi davlat ilmiy nashriyoti.



| №                                                                       | MAQOLA SARLAVHASI VA MUALLIFLARI                                                                                                                                                                                                                      | SAHIFASI |
|-------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------|
| <b>I SHO'BA. O'ZBEK TILI TARIXI VA UNING XALQARO ALOQALARDAGI O'RNI</b> |                                                                                                                                                                                                                                                       |          |
| 1                                                                       | <b>ÖZBƏKİSTAN RESPUBLİKASINDA DİL SİYASƏTİNİN MÜSTƏQİLLİKDƏN SONRAKİ İNKİŞAF MƏRHƏLƏLƏRİ - Elçin İBRAHİMOV</b> Prof. Dr. Qarabağ Universiteti Elm şöbəsinin müdiri                                                                                    | 19-35    |
| 2                                                                       | <b>ORTAK DEĞERLERİMİZ: DİLİMİZ, KÜLTÜRÜMÜZ VE ATASÖZLERİMİZ - Ahmet Hamdi SALBAŞ</b> Ali Şir Nevai Akademik lisesi öğretmeni                                                                                                                          | 36-41    |
| 3                                                                       | <b>O'ZBEK TILINING XALQARO MIQYOSDA OMMALASHUVI: RIVOJLANISH OMILLARI VA ISTIQBOLLARI - Bahodirov Botir Baxodirovich</b> - Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti akademik litseyi yoshlar ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari | 42-47    |
| 4                                                                       | <b>TIL – MILLAT KO'ZGUSI - Baxodirova Mashhura Baxodirovna, Osimova Rayxona Adhamjon qizi</b> - Farg'ona davlat texnika universiteti 1-son akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari                                                  | 48-51    |
| 5                                                                       | <b>O'ZBEK TILI TARIXI VA UNING XALQARO ALOQALARDAGI O'RNI - Nazarova O'rozhol Xudoyberdiyevna</b> - Termiz davlat universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi                                                                | 52-55    |
| 6                                                                       | <b>FRANSUZ TILINI TARIXIY RIVOJLANISHI - Usmanova Malika Adilovna</b> Farg'ona davlat universiteti akademik litseyi "Chet tillar" kafedrasida fransuz tili fani o'qituvchisi                                                                          | 56-58    |
| 7                                                                       | <b>FRANSUZ TILIDA FRAZELOGIK BIRLIKLARI - Andapulatova Firuza Ikramovna</b> - Farg'ona davlat universiteti akademik litseyi "Chet tillar" kafedrasida fransuz tili fani o'qituvchisi                                                                  | 59-62    |
| 8                                                                       | <b>O'ZBEK TILINING XALQARO MAYDONDAGI NUFUZI: TARIXI, BUGUNI VA ISTIQBOLLARI - Yangiboyeva Umida Ravshanbek qizi</b> Urganch innovatsion universiteti Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili yo'nalishi, 24-01 guruh talabasi                   | 63-66    |
| 9                                                                       | <b>MAXMUD QOSHG'ARIYNING LINGVISTIK QARASHLARI - Umarov Abroroxuja Vaxobovich</b> Namangan davlat texnika universiteti 1-son akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi                                                                  | 67-70    |
| 10                                                                      | <b>O'ZBEK TILINING XALQIMIZ VA XALQARO ALOQALARDAGI AHAMIYATI - Saidova Dildora Baxtiyarovna</b> TDTU 3-son akademik litseyi o'zbek tili va adabiyot fani o'qituvchisi                                                                                | 71-74    |
| 11                                                                      | <b>O'ZBEK TILI: MILLIY O'ZLIK VA XALQARO E'TIROF RAMZI - Eshnayeve Feruza Qarshiyevna</b> Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi                                                              | 75-77    |
| 12                                                                      | <b>İLİM ÜZERİNE - Zahro Mahmudova</b> Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti akademik litseyi Xorijiy tillar (turk) yo'nalishi o'qituvchisi                                                                    | 78-82    |
| 13                                                                      | <b>"CODEX CUMANICUS"DA İŞLƏNƏN BƏZİ SÖZLƏRİN DİALEKTLƏRDƏ İZLƏRİ - İmanyar QULİYEV</b> AMEA Nəsimi adına Dilçilik İnstitutu, böyük elmi işçi, fil.ü.f.d. Bakı Avrasiya Universiteti, müəllim                                                          | 83-94    |
| <b>II SHO'BA. HOZIRGI O'ZBEK TILSHUNOSLIGINING DOLZARB MUAMMOLARI</b>   |                                                                                                                                                                                                                                                       |          |
| 14                                                                      | <b>ELBEKNING LUG'ATCHILIK FAOLIYATI HAQIDA - Normamatov Sulton Ermamatovich</b> Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Filologiya fanlari doktori (DSc), professor                                             | 96-102   |
| 15                                                                      | <b>IS'HOQXON IBRAT ASARLARIDA IJTIMOYIY-SIYOSIY, MAISHIY LEKSIK QATLAM QO'LLANISHIDAGI LISONIY VA NOLISONIY OMILLAR - Latipov Murotali Mannobovich</b> Guliston davlat universiteti Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.       | 103-107  |
| 16                                                                      | <b>ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING O'ZBEK TILI TARAQQIYOTIGA QO'SHGAN HISSASI - Abbasova Mubina</b> Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti stajer-tadqiqotchisi                                                  | 108-112  |
| 17                                                                      | <b>FIZIOLOGIK HOLAT FE'LLARINING O'ZBEK TILIDAN INGLIZ TILIGA TARJIMA QILISHDAGI MUAMMOLAR - Pulat Fozilov</b> Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti mustaqil tadqiqotchisi                                                           | 113-119  |
| 18                                                                      | <b>DINIY LEKSEMALARINING SEMANTIK VA STILISTIK XUSUSIYATLARI TAVSIFI -Mirzayeva Mashxura Ravshanbek qizi</b> Farg'ona davlat texnika universiteti 1-son akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi                                       | 120-124  |



|                                                                                        |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                 |         |
|----------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| 19                                                                                     | <b>LINGVOPRAGMATIKANING TILSHUNOSLIKDAGI O'RNI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI - Kobilov Nomoz O'rolovich</b> Sharof Rashidov nomidagi SamDU akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi (PhD)                                                                                                                                                                        | 125-128 |
| 20                                                                                     | <b>HOZIRGI O'ZBEK TILSHUNOSLIGINING DOLZARB MUAMMOLARI - Abdurasulova Raximaxon Odiljon qizi</b> Namangan davlat pedagogika instituti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi                                                                                                                                                                                   | 129-131 |
| 21                                                                                     | <b>KULOLCHILIK LEKSIKASIDA DETERMINATSIYA VA TERMINOLOGIZATSIYA HODISALARI Mamatkulova Zilola Rejabaliyevna</b> Farg'ona davlat universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi, Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori                                                                                                                               | 132-136 |
| 22                                                                                     | <b>QADIMGI VA ESKI TURK BITIKLARIDA TABG'ACH VA QITANY (XITOIY) TOPONIMLARI MASALASI - Mamajonov Alisherbek Ravshanbek o'g'li</b> Farg'ona davlat univeristeti Lingvistik: o'zbek tili mutaxassiligi magistranti                                                                                                                                                                | 137-143 |
| 23                                                                                     | <b>HOZIRGI O'ZBEK TILSHUNOSLIGINING DOLZARB MUAMMOLARI - Tilovova Guljahon Dilmurod qizi</b> Shahrizabz davlat pedagogika instituti huzuridagi akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi                                                                                                                                                                          | 144-147 |
| 24                                                                                     | <b>"MUNOZARA" DRAMASIDA QO'LLANGAN BA'ZI UNDOV SO'ZLARING LINGVOPRAGMATIK TAHLILI - Usmonova Shaxnozaxon Erkinjonovna</b> TDYU huzuridagi Namangan viloyati akademik litseyi Tillar kafedrasida yetakchi o'qituvchisi                                                                                                                                                           | 148-151 |
| 25                                                                                     | <b>O'ZBEK TILIDA SINTAGMATIK MA'NO VA SINTAGMATIK MUNOSABAT, ULARNING IFODALANISH YO'LLARI - Usmonova Huriniso Sharapovna,</b> Namangan davlat universiteti professori                                                                                                                                                                                                          | 152-156 |
| 26                                                                                     | <b>HID KONSEPTI - Qurbonov Akmaljon Tavakaljon o'g'li</b> Farg'ona davlat universiteti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi                                                                                                                                                                                                                                  | 157-162 |
| 27                                                                                     | <b>METATIL VA TARIXIY TURKOLOGIYA: 'AT-TUHFATUZ ZAKIYATU FIL-LUG'ATIT-TURKIYA ASARINING ILMIY MEROSI - Xolbekova Nargiza Zohidjonovna</b> FarDU mustaqil izlanuvchisi, FarDU akademik litseyi ingliz tili o'qituvchisi                                                                                                                                                          | 163-165 |
